



INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI BOG'LOVCHILARNING VAZIFADOSHLIGI

Abdisharipov Baxrambek Baxodir o'g'li
Ma'mun universiteti
Roman german kafedrasi

Annotatsiya: O'zbek va ingliz tillaridagi bog'lovchilar (konnektorlar) o'zaro bog'laydigan so'zlar yoki iboralardir. Ularning vazifasi gaplar va iboralarni mantiqiy ravishda bir-biriga bog'lashdir. Ushbu bog'lovchilar o'xshash vazifani bajarishiga qaramay, ularning qo'llanishi va uslubi tillar o'rtasida farq qiladi.

Kalit so'zlar: Bog'lovchi, shuningdek, lekin, ammo, biroq, o'xshashliklar.

Annotation: conjunctions (connectors) in Uzbek and English are words or phrases that connect. Their function is to logically link sentences and phrases together. Despite the fact that these binders perform a similar function, their application and style differ between languages.

Keywords: The conjunction but also, however, similarities.

Аннотация: Связующее (коннекторы) в узбекском и английском языках-это слова или фразы, которые соединяются между собой. Их функция-логически связывать предложения и фразы вместе. Хотя эти союзы выполняют схожую функцию, их использование и стиль различаются в зависимости от языка.

Ключевые слова: Связующее, а также но, однако, сходства.

Kirish: Ingliz tilida bog'lovchi, uning o'ziga xosligi, qo'llanilishi, turlari, vazifalari monografiya, darslik, o'quv qo'llanmalarida batafsil yoritilgan. O'zbek va ingliz tillarida bog'lovchining vazifasi va semantik tipologiyasi o'rganilayotgan tillarda so'zning turkumga mansubligini o'rganishdan boshlanadi. O'zbek tilida bo'lgani kabi ingliz tilida ham bosh gap bo'laklari ot, sifat, son, olmosh, ergash gap va fe'lidan iborat. Predloglar va bog'lovchilar ikkinchi darajali bo'laklar sifatida alohida guruhlanadi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, ingliz tilidagi predlog o'zbek tilida yuklama vazifasini bajaradi. Darslik va o'quv qo'llanmalarida bog'lovchiga berilgan ta'riflar deyarli bir biridan farqlanmaydi. Bog'lovchi - mantiqiy fikrni, gapning grammatik qismlarini bog'lash uchun xos bo'lgan gap bo'lagi. Bog'lovchi – sodda gap tarkibidagi bo'laklarni, qo'shma gap bo'laklarini va matndagi gaplarni o'zaro bog'laydigan ikkinchi darajali bo'lak. Keling, ba'zi asosiy bog'lovchilarni ko'rib chiqaylik:

O'zbek tilidagi bog'lovchilar:

- Va - bir xil fikrni birlashtirish uchun ishlataladi. Misol: "Men kitob o'qiyapman va do'stim film ko'rayapti."
- Yoki - tanlovni ko'rsatadi. Misol: "Suv ichasizmi yoki choy?"
- Lekin - qarama-qarshilikni ifodalaydi."U yaxshi o'qiydi, lekin darslarga kelmaydi."



- Shuningdek - qo'shimcha ma'lumot berish uchun. Misol: "U sport bilan shug'ullanadi, shuningdek, musiqa ham o'r ganadi."
- Ingliz tilidagi bog'lovchilar:
 - And - bir xil fikrni birlashtirish uchun. Example: "I am reading a book and my friend is watching a movie."
 - Or - tanlovnini ko'rsatadi. Example: "Do you want water or tea?"
 - But - qarama-qarshilikni ifodalaydi. Example: "She studies hard, but she doesn't attend classes."
 - Also - qo'shimcha ma'lumot berish uchun. Example: "He plays sports; he also learns music."

Umumiyl o'xshashliklar va farqlar:

- O'xshashliklar: Har ikki tillarda bog'lovchilar bir xil vazifani bajaradi, ya'ni fikrlarni birlashtiradi, tanlovlarni ko'rsatadi yoki qarama-qarshiliklarni ifodalaydi.
- Farqlar: O'zbek tilida ba'zi bog'lovchilar (masalan, "ham" va "balki") o'zining o'ziga xos konteksti va ishlatilishiga ega, ingliz tilida esa "also" yoki "maybe" kabi bog'lovchilar bilan ifodalanadi.

Ingliz tilida gapni mantiqiy jihatdan to'g'ri tuzish, fikrni aniq ifodalash uchun bog'lovchi turlarini bilish va undan o'rini foydalana olish muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy ingliz tilida muvofiqlashtiruvchi qo'shma gaplar, korrelyativ bog'lovchilar va tobe bog'lovchilar mavjud. M.G'apporov qo'shma gaplarning ikki turini ajratadi: kelishik va tobe bog'lovchilar. N.A.Myltseva, T.M. Jimalenko ham "Universal murojaat grammatikasi" kitobida qo'shma gaplarni ikki turga ajratadi: muvofiqlashtiruvchi va bo'ysunuvchi bog'lovchilar. Muvoqiflashtiruvchi birikma. M.A.Rustamov va M.I.Asriyanlar va, lekin, yoki, na, uchun, shuning uchun, hali, va/yoki kabi so'zlarni kelishik bog'lovchisi deb hisoblaydi; ular bir grammatic turkumdag'i ikki yoki undan ortiq so'z, ibora yoki gaplarni bog'lashini ta'kidlaydilar. Bu manbada so, yet bog'lovchilarining boshqa vazifada kelishi ham qayd etilgan. Va qo'shish ma'nosini bildiradi: qo'shimchani ifodalaganda o'zbek tiliga -ga (to), boshqa holatda va (and), bilan, hamda so'zleri orqali tarjima qilinadi: Olti va ikki sakkizni tashkil etadi. Guruch va kartoshka inson hayoti uchun juda muhim mahsulotlardir. But mano qarama-qarshilik: o'zbek tilida ammo, lekin, biroq so'zlari tarzida tarjima qilinadi: Ko'p daraxtlar qishda barglarini yo'qotadi, doim yashil daraxtlar esa yo'q.

Bog'lovchilar gapda qo'llanilishiga ko'ra ikki xil: yakka holda qo'llaniladigan bog'lovchilar va takrorlangan holda qo'llaniladigan bog'lovchilar. Yakka holda qo'llaniluvchi bog'lovchilarga va, ham, hamda, ammo, lekin, biroq, balki



bog'lovchilari kiradi. Takrorlangan holda qo'llaniluvchi bog'lovchilarga bir bir, goh goh, ba'zan ba'zan, yo yo, yoki yoki kabilar kiradi. Bog'lovchilar vazifasiga ko'ra teng bog'lovchilar va ergashtiruvchi bog'lovchilargabo'linadi. Teng bog'lovchilar so'zlarni va qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni teng munosabatda bog'laydi va ular o'rtasidagi mazmuniy munosabatlarni qay tarzda ifodalashiga ko'ra biriktiruv bog'lovchilari(va, ham, hamda), zidlov bog'lovchilari(ammo, lekin, biroq, balki), ayiruv bog'lovchilari(yo, yoki, yo...yo, yoki...yoki, goh...goh, ba'zan...ba'zan, bir...bir) inkor bog'lovchisi(na...na) kabi turlarga bo'linadi.

Teng bog'lovchilar gapning uyushuq bo'laklarini va mustaqil gaplarni bir-biriga bog'lash uchun ishlataladi:

I have received a letter **and** a telegram - Men xat **va** telegramma oldim.

Bog'lovchilar shakliga ko'ra sodda va qo'shma bo'ladi: Sodda bog'lovchilar: and va, bilan, **but** ammo, lekin, **if** agar, **that**. Qo'shma bog'lovchilar: **as well as** ham, shuningdek; so that, in order that uchun, maqsadda; **as soon as** -gach, bilanoq va boshqalar. Ba'zi qo'shma bog'lovchilar ikkilangan bo'ladi, chunki ikki qismdan iborat bo'ladi: **both ... and** ham ... ham, **not only ... but also** faqat emas ... ham, **either ... or** yoki ... yo, **neither ... nor** na ... na va boshqalar. Ba'zi bog'lovchilar sifatdoshlar shakliga ega bo'ladi: **provided** (providing) shartda, agar... bo'lsa; **seeing** bilib, modomiki, hamonki; **supposing** shunday, aytaylik, faraz qilaylik.

That, if, whether bog'lovchilari ega, kesim va to'ldiruvchi ergash gaplarni bosh gap bilan bog'laydi: Ask him **whether (if)** he can do it tomorrow (to'ldiruvchi ergash gap). Undan bu ishni ertaga qilish-qila olmasligini so'rang.

BOG'LOVCHI SO'ZLAR: Ergash gaplarni bosh gaplar bilan bog'lash uchun bog'lovchilardan tashqari quyidagi bog'lovchi so'zlar ham ishlataladi: **who, whose, what, which, that** olmoshlari va **when, where, how, why** ravishlari. Ular bog'lovchilardan farq qilib, gapda birorta gap bo'lagi ham bo'lib keladi. Ba'zi bog'lovchilarning shakli predloglar va ravishlar bilan mos keladi. Ularning qaysi so'z turkumiga mos kelishini biz ularning gapdagi vazifasidan aniqlaymiz:

- He always comes before I do (before — bog'lovchi, ergash gap ni bosh gapga bog'laydi). U har doim men kelishimdan oldin keladi.
- I shall go there before dinner (before — predlog; otga munosabatni ko'rsatayapti). Men u yerga tushlikdan oldin boraman.
- I have seen this before (before — ravish; ish-harakatning sodir bo'lish vaqtini ko'rsatadi). Men buni oldin ko'rganman.
- I found the letter after he had left (after —bog'lovchi). Men u ketganidan keyin xatni topdim.



- He came after breakfast (after — bog‘lovchi). U nonushtadan keyin keldi.
- We can do that after (after — ravish). Buni keyin qila olamiz.
- a) quyidagilar payt ergash gaplarni bog‘laydi:

| | | |
|--|--|---|
| after keyin | After the steamer had left the port, we sent a telegram to the buyers. As I was coming here, I met your brother. | Paroxod portni tark etgach, biz xaridorlarga telegramma yubordik. Bu yoqqa kelayotganimda men akangizni uchratdim. |
| as -da | As winter approached, the days became shorter. As long as you insist on these terms, we shall not be able to come to an agreement with you. | Qish yaqinlashar ekan, kunlar qisqara boshladi. To siz shu shartlarga turib olar ekansiz, biz siz bilan kelisha olmaymiz. |
| as long as to, qadar | As winter approached, the days became shorter. As long as you insist on these terms, we shall not be able to come to an agreement with you. | U uyiga kelishi bilan (kelgach) bu ishni qiladi. |
| as soon as -gach, bilan | He will do it as soon as he comes home. | Sizni men oxirgi marta ko‘rganimdan buyon nima qilayapsiz. |
| since -dan buyon | What have you been doing since I last saw you? | Men ishimni tugatmagunimcha (tugatganimcha) shu yerda bo‘laman. |
| until (till) -maguncha (-gacha) | I shall stay here until (till) I have finished my work. | |

- b) quyidagilar sabab ergash gaplarni bog‘laydi:

| | | |
|---|--|---|
| as uchun, sababli | As I have not read the book, I cannot tell you anything about it. | Men kitobni o‘qib chiqmaganim sababli, u haqda biror narsa deyolmayman. |
| because chunki | I cannot do it now because I am very busy. | Men buni hozir qila olmayman, chunki juda bandman. |
| since sababli, modomiki | Since the documents have not arrived, we cannot load the goods. | Modomiki hujjatlar yetib kelmagan ekan, biz mollarni yuklay olmaymiz. |
| for uchun | He walked quickly, for he was in a great hurry. | U tez yurdi, chunki u juda shoshilardi. |
| seeing (that) ko‘rib, bilib, sababli | Seeing (that) he is ill today, we shall have to postpone the meeting. | Uning kasalligi tufayli, majlisni qoldirishimizga to‘g‘ri keladi. |

Xulosa: O‘zbek va ingliz tillaridagi bog‘lovchilar kommunikatsiya jarayonida juda muhim rol o‘ynaydi. Ularning to‘g‘ri ishlatalishi fikrlarni aniq va ravon ifodalashga yordam beradi. Har bir tilning o‘ziga xos xususiyatlari va bog‘lovchilarining



qo‘llanilishi o‘rganilishi zarur, chunki bu tilni o‘rganish jarayonida muhim ahamiyatga ega.

Foydalilanilgan adabiyothlar ro‘yxati:

1. A.Nurmonov, A.Sobirov, N.Qosimova Hozirgi o‘zbek adabiy tili; Toshkent; 2013-yil;
2. Rustamov M.A., Asriyans M.I. Ingliz tili grammatikasi; O‘quv qo‘llanma" O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi; 2006- yil.
3. Ingliz tili grammatikasi. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma / M. G‘apporov; – T.: «Turon-Iqbol» nashriyoti, 2010.
4. www.ziyone.uz kutubxonasi.

